

SHARTNOMA LOYIHASI

“DAVLAT BELGISI” DUK
shartnoma nusxasi

12-B/_____-sonli SHARTNOMA

Blankalari tayyorlash uchun

Toshkent sh.

20__-yil_____

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda “Bajaruvchi”) Ustavga asoslanib faoliyat yurituvchi Bosh direktor _____, bir tomondan va Qonun asosida ish yurituvchi _____ (keyingi o‘rinlarda **“Buyurtmachi”**) nomidan

(lavozimi f.i.sh)

ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” tomonidan quyidagi mahsulotlar “Buyurtmachi”ga tayyorlab beriladi, “Buyurtmachi” tayyorlangan mahsulotlarni qabul qilib oladi va uning haqini to‘lab beradi.

№	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Mahsulot adadi	1 birlik maxsulot narxi QQS siz (so‘m, tiyin)	1 birlik maxsulot narxi QQS bilan (so‘m, tiyin)	Shartnoma umumiy ummasi QQSsiz (so‘m, tiyin)	Shartnoma umumiy summasi QQS bilan (so‘m, tiyin)
1.							
	Jami:						

Mazkur mahsulotlarning narxi “Bajaruvchi” va “Buyurtmachi” o‘rtasidagi kelishuv narx bayonnomasi asosida belgilangan.

1.2 Mahsulot sifati “Buyurtmachi” talablariga javob berishi lozim.

2. Shartnoma bo‘yicha to‘lov tartibi

2.1. Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan: _____, so‘m (_____ so‘m _____ tiyin)ni tashkil qiladi

2.2. “Buyurtmachi” shartnoma kuchga kirgandan so‘ng **10 (o‘n) kalendar** kuni mobaynida shartnoma qiymatining **30 % bo‘nak** miqdorini oldindan “Bajaruvchi” hisobiga to‘laydi. Shartnoma summasining qolgan qismi “Bajaruvchi” tomonidan mahsulotlar tayyorlanib “Buyurtmachi”ga to‘liq taqdim etilgandan so‘ng **30 (o‘ttiz) kalendar** kuni mobaynida to‘lab beradi.

2.3. Tayyorlaniladigan mahsulotning narxi uni tayyorlash paytidagi narxni belgilovchi ko‘rsatkichlarga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan eng kam oylik ish haqi o‘zgarganda, hamda asosiy materiallarning narxi o‘zgarganda, “Bajaruvchi” mahsulot birligining narxini o‘zgartirish huquqiga egadir. Mahsulot narxi o‘zgargan taqdirda “Bajaruvchi” asosiy shartnomaga yangi narx kiritilgan qo‘shimcha kelishuv va narx kelishuv bayonnomasi taqdim etadi.

3. Mahsulotlarni tayyorlab berish muddati, tartibi va qabul qilish shartlari

3.1. “Buyurtmachi” tomonidan 30% to‘lovlari amalga oshirilishidan avval mahsulot namunasi “Bajaruvchi”ga taqdim etiladi.

“Bajaruvchi” qabul qilingan mahsulot namunasini o‘rganib chiqadi va yakuniy tasdiqlash uchun mahsulot namunasini “Buyurtmachi”ga taqdim etadi.

“Buyurtmachi” mahsulot asl namunasini qabul qilib olishi va tasdiqlab “Bajaruvchi”ga qaytarib berishi shart.

3.2. Mahsulotlar asl namunasini tasdiqlab berish va shartnoma umumiy summasining 30% hajmini oldindan to‘lash majburiyatlari “Buyurtmachi” tomonidan to‘liq bajarilgan kundan boshlab “Bajaruvchi” mahsulotlarni tayyorlashni boshlaydi hamda mahsulotlarni 45 kalendar kuni mobaynida tayyorlab beradi.

3.3. “Bajaruvchi” mahsulotlar tayyor bo‘lganligi haqida “Buyurtmachi”ga telefon orqali yoki xat yozib ma’lum qiladi.

“Buyurtmachi” mahsulotlar tayyor bo‘lganligi haqidagi ma’lumotni olgan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida mahsulotlarni “Bajaruvchi”dan olib chiqib ketishi shart.

3.4. Tayyor mahsulotlar olib chiqib ketish “Buyurtmachi”ning vakolatli shaxslari orqali, unga berilgan ishonchnoma va pasport taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

3.5. “Buyurtmachi” vakili mahsulotlarni qabul qilishni shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda “Bajaruvchi”ning vakili ishtirokda ko‘rib chiqib, qabul qilib olishi shart.

3.6. Mahsulotlarni qabul qilib olish jarayonida kamchiliklar aniqlansa, “Buyurtmachi”ning vakili bu to‘g‘risida “Bajaruvchi”ning vakiliga darhol ma’lum qilishi shart. Mahsulotlarni qabul qilish jarayonida aniqlash imkoniyati bo‘lmagan (yashirin) kamchiliklar aniqlanganda, taraflar mazkur shartnomaning 5.1-bandi va qonunchilikda belgilangan qoidalarni qo‘llaydilar.

3.7. “Buyurtmachi” tomonidan mahsulotlar qabul qilib olinganidan so‘ng mahsulotlar soniga bo‘lgan e’tirozlari “Bajaruvchi” tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

4. Mahsulot sifati

4.1. Mahsulotlar sifati tasdiqlangan asl namunaga va tasnifda ko'rsatilgan texnik shartlarga muvofiq kelishi lozim.

5. E'tirozlar

5.1. "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilib olingan mahsulotlarning sifati bo'yicha e'tirozlari mavjud bo'lgan holatda, bu haqida darhol "Bajaruvchi"ga tegishli mutaxassisi yuborish bo'yicha yozma murojaat qiladi.

5.2. Mahsulotlarning sifati bo'yicha e'tirozlarni o'rganib chiqish "Bajaruvchi"ning vakili ishtirokida amalga oshirilib, dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Agar taklif etilgan "Bajaruvchi" mutaxassisi murojaat olingan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun mobaynida yetib kelmasa, unda dalolatnoma "Buyurtmachi" vakillari tomonidan imzolanadi.

5.3. Dalolatnoma ikki nusxada tayyorlanadi va uning bir nusxasi "Bajaruvchi"ga taqdim etiladi.

5.4. "Bajaruvchi" 3 (uch) kalendar kuni mobaynida dalolatnomada bayon etilgan mahsulot sifatining nomuvofiqligi yuzasidan o'zining yozma xulosasini "Buyurtmachi"ga taqdim etishi lozim.

6. Korruptsiyaga qarshi shartlashuv

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Davlat belgisi" DUK xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarda ko'rilishini kafolat beradi.

6.3. Taraflardan biriga nisbatan yoki uning faoliyatida korruptsiyaviy holatlar aniqlangan taqdirda ikkinchi taraf shartnoma shartlarini bajarilishi yoki bajarilmasligidan qat'iy nazar shartnoma ijrosini to'xtatish yoki bekor qilishga haqlidir.

7. Taraflarning javobgarligi

7.1. Agar "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan mahsulotlar "Buyurtmachi"ning tasdiqlab bergan mahsulotlar asl namunasiga mos kelmagan taqdirda, "Buyurtmachi" mahsulotlarni qabul qilmasligi hamda ularning haqini to'lashni rad etishi mumkin.

Bunda, mahsulotlar sifati lozim darajada bo'lmagan qiymatining 5 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar mahsulot haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, sifati lozim darajada bo'lmagan mahsulotlar qiymatini belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

7.2. Agar mazkur shartnomaning 3.2-bandida qayd etilgan majburiyatlar to'liq bajarilib, mahsulotlarni tayyorlash jarayonida "Buyurtmachi" uni davom ettirishni xohlamasa, u holda "Bajaruvchi"ning mahsulotlarni tayyorlash xarajatlari oldindan to'langan mablag'lar hisobidan ushlab qolinadi.

7.3. "Bajaruvchi" mahsulotni tayyorlab berish muddatlarini kechiktirib yuborgan, to'liq tayyorlab bermagan, hollarda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Tayyorlab berilgan mahsulotlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.5. "Buyurtmachi" tayyor mahsulotlarni ko'rsatilgan muddatda olib ketmasa, "Bajaruvchi" hisobiga mahsulot qiymatining 5 (besh) foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.6. Boshqa xolatlarda taraflar ("Buyurtmachi", "Bajaruvchi") majburiyatlarni lozim darajada yoki umuman bajarmaganda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining tegishli normalari, "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida javobgardirlar.

8. Fors-major

8.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan favqulodda holatlar, shuningdek, yengib bo'lmay kuchlar tomonidan (suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi, harbiy harakatlar va boshqalar) sodir bo'lganda va oqibatda shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmasa, taraflar javobgarlikdan ozod qilinadilar. Ko'rsatilgan holat uchun kun ichida tegishli organning hujjati bilan tasdiqlanishi lozim.

9. Nizolarni hal etish tartibi

9.1. Mazkur shartnomani bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda ushbu nizoli masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda, da'vogarning joylashgan manzili bo'yicha hududiy Iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra yoki ulardan biri tarafidan shartnoma shartlarini boshqa taraf jiddiy buzgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

10.2. Taraflarning yuridik manzillari, telefon, faksleri, bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda ular ikki kun muddat ichida bir-birlariga bu xaqida ma'lumot berishga majburlar.

10.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilib, belgilangan tartibda taraflarning vakolatli vakillari tarafidan imzolangan taqdirdagina amalda bo'ladi.

10.4. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng kuchga kiradi va 2025-yilning 31-dekabrigacha amalda bo'ladi.

11. Taraflarning rekvizitlari

«Bajaruvchi»

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining

“Davlat belgisi” DUK

Pochta indeksi: 100053

Manzili: Toshkent shahar,

Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 160 «A»

hisob raqami: 21596000305108789001

MFO:00014

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Toshkent shahar Bosh boshqarmasi XKKM

INN:306612737

QQS kodi: 326030048929

OKED:18120

Tel./faks: 71-209-02-73, 71-209-03-41,71-209-03-19.

«Buyurtmachi»

“ _____ ”

Pochta indeksi: _____

Manzili: _____

hisob-kitob raqami: _____

MFO: _____

INN: _____

OKED: _____

QQS kodi: _____

Tel/faks.: _____.

«Bajaruvchi»

nomidan rahbar:

«Buyurtmachi»

nomidan rahbar:

Ishlab chiqarish

boshqarma boshlig'i _____

Bosh buxgalter _____

Yuridik xizmat _____

Shartnoma ijrochisi _____

SHARTNOMA LOYIHASI

“DAVLAT BELGISI” DUK
shartnoma nusxasi

12-B/_____ -sonli SHARTNOMA alkogol aksiz markalarini tayyorlash uchun

Toshkent sh.

20__-yil_____

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda “Bajaruvchi”) Ustavga asoslanib faoliyat yurituvchi Bosh direktor _____, bir tomondan va Ustav asosida ish yurituvchi “_____” (keyingi o‘rinlarda **“Buyurtmachi”**) nomidan

(lavozimi f.i.sh)

ikkinchi tomondan ushbu shartnomani O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlariga va spirtli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida” 285-sonli, 2023-yil 26-iyuldagi “Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish to‘g‘risida” 313-sonli qarorlariga hamda Adliya vazirligida 1999-yil 7-yanvarda 589-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan “O‘zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklariga aksiz markalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma”ga muvofiq quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” tomonidan alkogol aksiz markalari “Buyurtmachi”ga tayyorlab beriladi, “Buyurtmachi” tayyorlangan mahsulotlarni yoriqnoma belgilangan tartibda qabul qilib oladi va uning haqini to‘lab beradi.

Mazkur mahsulotlarning narxi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi tomonidan berilgan kelishuv narx bayonnomasi asosida belgilanadi.

Tayyorlaniladigan mahsulotning narxi uni tayyorlash paytidagi narxni belgilovchi ko‘rsatkichlarga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan eng kam oylik ish haqi o‘zgarganda, hamda asosiy materiallarning narxi o‘zgarganda, “Bajaruvchi” mahsulot birligining narxini o‘zgartirish huquqiga egadir. Mahsulot narxi o‘zgargan taqdirda “Bajaruvchi” asosiy shartnomaga yangi narx kiritilgan qo‘shimcha kelishuv va narx kelishuv bayonnomasi taqdim etadi.

1.2 Mahsulot sifati “Buyurtmachi” talablariga javob berishi lozim.

2. Shartnoma bo‘yicha to‘lov tartibi

2.1. “Buyurtmachi” alkogol aksiz markalarini sotib olish uchun pul mablag‘larini “Bajaruvchi”ning bank hisob-varag‘iga o‘tkazadi.

2.2. “Buyurtmachi” alkogol aksiz markalarni tayyorlab berish bo‘yicha belgilangan tartibda 3 nusxada buyurtmanoma rasmiylashtirib, “Bajaruvchi”ga taqdim etadi.

2.3 “Buyurtmachi” buyurtmanomada ko‘rsatilgan umumiy summaning 50% bo‘nak mablag‘lar to‘lovini amalga oshiradi. Buyurtmanoma summasining qolgan qismi “Bajaruvchi” tomonidan aksiz markalar tayyorlanib “Buyurtmachi”ga to‘liq taqdim etilgandan so‘ng va elektron hisob faktura yuborilgan kundan bo‘shlab 30 (o‘ttiz) kalendar kuni mobaynida to‘lab beriladi.

2.4 “Bajaruvchi” tasdiqlangan buyurtmanomaning 2 nusxasini “Buyurtmachi” ga qaytaradi.

2.5 “Buyurtmachi” qaytarib olingan buyurtmanomaning bir nusxasini viloyat, shahar, tuman soliq idoralariga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun topshiradi.

3. Mahsulotlarni tayyorlab berish muddati, tartibi va qabul qilish shartlari

3.1. “Bajaruvchi” alkogol aksiz markalarni qonunchilik hujjatlarida tasdiqlangan namuna asosida tayyorlaydi.

3.2. “Bajaruvchi” tomonidan buyurtmanomada ko‘rsatilgan alkogol aksiz markalarni shartnoma umumiy summasining 50 % bo‘nak mablag‘lari kelib tushgan kundan boshlab tayyorlashga kirishadi va 40 kalendar kuni mobaynida “Buyurtmachi”ga tayyorlab beradi.

3.3. “Bajaruvchi” tomonidan tayyorlangan alkogol aksiz markalarni “Buyurtmachi”ga yetkazish va qabul qilib olish Adliya vazirligida 1999-yil 7-yanvarda 589-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan “O‘zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklariga aksiz markalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma”ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, aksiz markalarni “Bajaruvchi”dan “Agrobank”ka yetkazish (tashish) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda inkassatsiya xizmati orqali amalga oshiriladi.

3.4. Mahsulotlarni qabul qilib olish jarayonida kamchiliklar aniqlansa, “Buyurtmachi”ning vakili bu to‘g‘risida “Bajaruvchi”ning vakiliga darhol ma’lum qilishi shart. Mahsulotlarni qabul qilish jarayonida aniqlash imkoniyati bo‘lmagan (yashirin) kamchiliklar aniqlanganda, taraflar mazkur shartnomaning 5.1-bandi va qonunchilikda belgilangan qoidalarini qo‘llaydilar.

3.5. “Buyurtmachi” tomonidan mahsulotlar qabul qilib olinganidan so‘ng mahsulotlar sifatiga bo‘lgan e’tirozlari “Bajaruvchi” tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

4. Mahsulot sifati

4.1. Mahsulotlar sifati tasdiqlangan namunaga va tasnifda ko‘rsatilgan texnik shartlarga muvofiq kelishi lozim.

5. E'tirozlar

5.1. "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilib olingan mahsulotlarning sifati bo'yicha e'tirozlari mavjud bo'lgan holatda, bu haqida darhol "Bajaruvchi"ga tegishli mutaxassisi yuborish bo'yicha yozma murojaat qiladi.

5.2. Mahsulotlarning sifati bo'yicha e'tirozlarni o'rganib chiqish "Bajaruvchi"ning vakili ishtirokida amalga oshirilib, dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Agar taklif etilgan "Bajaruvchi" mutaxassisi murojaat olingan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun mobaynida yetib kelmasa, unda dalolatnoma "Buyurtmachi" vakillari tomonidan imzolanadi.

5.3. Dalolatnoma ikki nusxada tayyorlanadi va uning bir nusxasi "Bajaruvchi"ga taqdim etiladi.

5.4. "Bajaruvchi" dalolatnomani olgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kuni mobaynida dalolatnomada bayon etilgan mahsulot sifatining nomuvofiqligi yuzasidan o'zining yozma xulosasini "Buyurtmachi"ga taqdim etishi lozim.

6. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

6.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Davlat belgisi" DUK xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishi kafolat beradi.

6.3. Tomonlardan biriga nisbatan yoki uning faoliyatida korrupsiyaviy xolatlar aniqlangan taqdirda ikkinchi taraf shartnoma shartlarini bajarilishi yoki bajarilmasligidan qat'iy nazar shartnoma ijrosini to'xtatish yoki bekor qilishga xaqlidir.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Agar "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan mahsulotlar "Buyurtmachi"ning tasdiqlab bergan mahsulotlar asl namunasiga mos kelmagan taqdirda, "Buyurtmachi" mahsulotlarni qabul qilmasligi hamda ularning haqini to'lashni rad etishi mumkin.

Bunda, mahsulotlar sifati lozim darajada bo'lmagan qiymatining 5 foizi miqdorida penya undirib olishga, agar mahsulot haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, sifati lozim darajada bo'lmagan mahsulotlar qiymatini belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

7.2. Agar mazkur shartnomaning 3.2-bandida qayd etilgan majburiyatlar to'liq bajarilib, mahsulotlarni tayyorlash jarayonida "Buyurtmachi" uni davom ettirishni xohlamasa, u holda "Bajaruvchi"ning mahsulotlarni tayyorlash xarajatlari oldindan to'langan mablag'lar hisobidan ushlab qolinadi.

7.3. "Bajaruvchi" mahsulotni tayyorlab berish muddatlarini kechiktirib yuborgan, to'liq tayyorlab bermagan, hollarda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Tayyorlab berilgan mahsulotlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kalendar kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Avvalgi buyurtma uchun hisoblangan penya va jarimalar yangi buyurtma uchun o'tkazilgan summadan ushlab qolinadi.

7.5. "Buyurtmachi" tayyor mahsulotlarni ko'rsatilgan muddatda olib ketmasa, "Bajaruvchi" hisobiga mahsulot qiymatining 5 (besh) foiz miqdorida jarima to'laydi.

7.6. Boshqa xolatlarda taraflar ("Buyurtmachi", "Bajaruvchi") majburiyatlarni lozim darajada yoki umuman bajarmaganda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining tegishli normalari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida javobgardirlar.

7.7. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'rsatilgan barcha majburiyatlari O'zbekiston Respublikasida amaldagi Qonun hujjatlari va 4 (to'rt) tomonlama tuzilgan 2006-yil 15-noyabrda 400-sonli Bosh shartnoma asosida amal qiladi.

8. Fors-major

8.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan favqulodda holatlar, shuningdek, yengib bo'lmaydigan kuchlar tomonidan (suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi, harbiy harakatlar va boshqalar) sodir bo'lganda va oqibatda shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmasa, taraflar javobgarlikdan ozod qilinadilar. Ko'rsatilgan holat uch kun ichida tegishli organning hujjati bilan tasdiqlanishi lozim.

9. Nizolarni hal etish tartibi

9.1. Mazkur shartnomani bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda ushbu nizoli masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunlapida belgilangan taptibda, da'vogarning joylashgan manzili bo'yicha xududiy Iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra yoki ulardan biri tarafidan shartnoma shartlarini boshqa taraf jiddiy buzgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

10.2. Taraflarning yuridik manzillari, telefon, fakslari, bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda ular ikki kun muddat ichida bir-birlariga bu xaqida ma'lumot berishga majburlar.

10.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilib, belgilangan tartibda taraflarning vakolatli vakillari tarafidan imzolangan taqdiridagina amalda bo'ladi.

10.4. Mazkur shartnoma ikki asl nusxada tuziladi va har bir Tomonga, bir nusxadan beriladi.

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2024-yil 17-yanvardagi 12-B/25-sonli shartnoma o'z kuchini yo'qatgan deb xisoblanadi.

10.5. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-noyabrdagi 496-sonli Qarorining amal qilish muddati davomida haqiqiy xisoblanadi va mazkur shartnoma shartlarining to'liq bajarilishiga qadar kuchga ega bo'ladi.

11. Taraflarning rekvizitlari

«Bajaruvchi»

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining

“Davlat belgisi” DUK

Pochta indeksi: 100053

Manzili: Toshkent shahar,

Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 160 «A»

hisob raqami: 21596000305108789001

MFO:00014

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Toshkent shahar Bosh boshqarmasi XKKM

INN:306612737

QQS kodi: 326030048929

OKED:18120

Tel./faks: 71-209-02-73, 71-209-03-41,

71-209-03-19, 55-515-50-72.

«Buyurtmachi»

“ _____ ”

Pochta indeksi: _____

Manzili: _____

Hisob-kitob raqami: _____

MFO: _____

INN: _____

OKED: _____

QQS kodi: _____

Tel/faks.: _____.

«Bajaruvchi»

nomidan rahbar:

«Buyurtmachi»

nomidan rahbar:

Ishlab chiqarish

boshqarma boshlig'i _____

Bosh buxgalter _____

Yuridik xizmat _____

Narx shakllanishi bo'yicha

yetakchi mutaxassis _____

Shartnoma ijrochisi _____

